

«UzAuto Motors» AJ  
**XARID XUJJATLARI**



22ZD-9036-00117

2022-05-30

"Tasdiqlayman"  
"UzAuto Motors" AJ Xorazm viloyati  
filiali boshqaruvchi direktori

**S.M.Jumaniyazov**

No	Asosiy parametrlar	Ko`rsatkichlar
1	Model	Damas va Labo
2	Asos	Xarid uzex platformasi orqali butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarini izlashda eng yaxshi takliflarni tanlash. Avtomobil tannarxini kamaytirish. (xarid.uzex.uz/etender.uzex.uz)
3	Chegaraviy narx (Predelnaya stoimost)	200 000 000 (Ikki yuz million) so`m.
4	Butlovchi qism turi	Avtomobil shtamplangan butlovchi qismi 94584165/4271 - REINF,FRONT SUSPENSION,R/L
5	To`lov shartlari	To`lov shartnoma bo`yicha – xar oyda 2 marta 15 sanadan keyin va xar oy oxirida agar kelishuv xisoboti mavjud bo`lsa 15 bank kuni ichida milliy valyuta (Sum)da amalga oshiriladi
6	Yetkazib berish sharti	Xorazm viloyati Tuproqqal`a tumani Pitnak shaxri, Hazorasp ko`chasi 1- uy gacha.

**Komissiya raisi**

**Boshqaruvchi direktor**  
*Xorazm viloyatidagi Pitnak sh.*  
*"UzAuto Motors" AJning filiali*



2022-05-30 17:10

**S. M.**  
**Jumaniyazov**  
2022-05-30 15:01

**Komissiya a'zolari**

---

**Bosh yuriskonsult**  
*Bosh Yuriskonsult*



2022-05-20 19:31

**P. O.**  
**Xo`janiyazov**  
2022-05-20 15:17

**Bo'lim boshlig'i**  
*Texnologiya va texnik xizmat ko'rsatish*



2022-05-26 11:04

**B. A. Paluanov**  
2022-05-20 15:17

**Bo'lim boshlig'i**  
*Rejalashtirish va Narx nazorati bo'limi*



2022-05-29 10:23

**D. B. Qo`chqarov**  
2022-05-20 15:17

**Bo'lim boshlig'i**  
*Buxgalteriya hisobi va moliya bo'limi*



2022-05-26 15:23

**Sh. B.**  
**Matrasulov**  
2022-05-20 15:17

**Bo'lim ichida rozilik**

---

**Boshqarma boshlig'i**  
*Global xarid qilish va ta'minot tizimi boshqarmasi*



2022-05-20 15:17

**U. P. Ruzibayev**  
2022-05-20 13:41

**Bo'lim boshlig'i**  
*Maxallillashtirish bo'limi*



2022-05-20 15:08

**D. K. Annaqov**  
2022-05-20 13:41

**Bo'linma boshlig'i**  
*Interior, Exterior va kuzov qismlari bo'linmasi*



2022-05-20 14:50

**G. A. Saidov**  
2022-05-20 13:41

**Mas'ul**

---

**Muhandis-texnolog**  
*Interior, Exterior va kuzov qismlari bo'linmasi*



2022-05-20 13:32

**B. R.**  
**Qutlimuratov**  
2022-05-20 13:41

## **Mundarija**

- I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma.
- II. Tanlovning texnik qismi.
- III. Tanlovning narx qismi.
- IV. Shartnoma loyixasi.


## I. Tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnoma

<b>1</b>	<b>Umumiy qoidalar</b>	1.1	Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprel kungi O'RQ-684-sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi Qonuni (keyingi o'rinlarda «Qonun»)ga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevral kungi №PQ-3550-sonli «Loyixalari, loyixalar, tanlov xujjatlari va shartnomalarini ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (keyingi o'rinlarda «Qaror»)ga, shuningdek, Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-mayda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3016) (keyingi o'rinlarda «Nizom»)ga muvofiq ishlab chiqilgan.
		1.2	Tanlov mavzusi: <b>Labo avtomobilining 94584165 va 94584271 raqamli Shtamplangan butlovchi qismlarni ishlab chiqarish.</b>
		1.3	Tanlovning quyi va yuqori qiymatlari va valyutalari tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.
		1.4	Sotib olinadigan tovarlar (xizmatlar va ishlar) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida ko'rsatilgan.
		1.5	Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a'zolarining bevosita ishtirokida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi ham mumkin
<b>2</b>	<b>Tanlov tashkil qiluvchilar.</b>	2.1	Tanlov buyurtmachisi «UzAuto Motors» AJ (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi») hisoblanadi. Buyurtmachining yuridik manzili: Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani Pitnak shaxri, Hazorasp ko'chasi 1. Buyurtmachining rekvizitlari: MFO 01169, STIR 200244767, x/r 2021 4000 9005 3230 5053 AT «Asaka bank» Hazorasp filiali
		2.2	Buyurtmachining aloqa bog'lovchi vakili: Global xarid qilish boshqarmasining HVAC, shassi va uzellar bo'linmasi muxandis-texnologi. email: Bobur.Qutlimuratov@uzautomotors.com tel: +998781502200 #2 4881
		2.3	Tanlov komissiyasining ishchi organi «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali Mahalliyashtirish bo'limi (keyingi o'rinlarda «Ishchi organ») hisoblanadi.
		2.4	Shartnoma egasi: «UzAuto Motors» AJ Xorazm viloyati filiali
		2.5	Tanlov xujjatlari qonunga muvofiq tashkil qilingan besh kishidan iborat kompaniya komissiyasi tomonidan baxolanadi.
<b>3</b>	<b>Tanlov ishtirokchilari</b>	3.1	Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari ishtirok etishlari mumkin, Ushbu tanlov


			xujjatlarining 4.2 bandida ko'rsatilgan shaxslar bundan mustasno.
		3.2	Ekeltron tanlovda qatnashish uchun ishtirokchi.
			Etender.uzex.uz saytida ERI kaliti orqali ro'yxadan otishi va kerakli bo'limlarni to'ldirishi kerak. (Mijoz turi, shaxsiy ma'lumotlar). Yakka tartibdagi va rezident tadbirkorlar faqat raqamli imzo (ERI) yordamida ro'yxatdan o'tishlari mumkin.
<b>4</b>	<b>Tanlov o'tkazish tartibi</b>	4.1	Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilar: a) takliflarni qonunchilik talablari va muddatlariga, hamda tanlov xujjatlariga muvofiq ravishda yuborishlari kerak. Buyurtmachi va ishtirokchilar elektron tenderda ishtirok etadilar elektron raqamli imzo (keyingi o'rinlarda - ERI) yordamida. Mijozlar va ishtirokchilar tomonidan foydalanilganda, ERI elektron tizimda tuzilgan shartnomaning haqiqiylikini tan olish uchun asos bo'ladi.
		4.2	O'zbekiston Respublikasi norezidentlari elektron davlat xaridlari tizimida ro'yxatdan o'tadilar va ERI kalitisiz shaxsiy kabineti orqali tijorat takliflarini yuboradilar. Tanlovda ishtirok etishga quyidagi ishtirokchilarga ruxsat berilmaydi:
			- qayta tashkil bo'lish, tugatilish yoki inqirozlik bosqichida turgan;
			- buyurtmachi bilan sudlashuv yoki arbitraj muxokamasida bo'lgan;
			- Layoqatsiz (insofsiz) ijrochilarning yagona ro'yxatida bo'lgan;
			- soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi bo'lgan;
			- Imtiyozli soliq tizimi bilan ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operatsiyalar o'tkazishda oshkoralikka va ma'lumot berishga yo'l qo'ymaydigan davlatlardagi yoki xududlar (offshor xududlar) dagi banklarda xisob raqamlari bo'lgan yoki ro'yxatdan o'tgan;
		4.3	Buyurtmachi quyidagi holatlarda tanlov ishtirokchisini xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatish xuquqiga ega:
			- tanlov ishtirokchisi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash

			to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho buyumni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;
			- tanlov ishtirokchisi O'zR qonunchiligini buzgan holda boshqa raqobatchilardan adolatsiz ustunlikka ega bo'lsa yoki qonunchilikka zid ravishda manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda
		4.4	Operatorning elektron tizimi amalga oshiradi avtomatik rejimda:
			<ul style="list-style-type: none"> <li>- har bir lot bo'yicha amalga oshirilgan avans to'lovi miqdoriga muvofiq elektron xaridlarga ruxsat berish;</li> <li>- elektron xaridlarni amalga oshirish;</li> <li>- elektron xaridlar natijalari bo'yicha pudratchini aniqlash</li> <li>- bitimni rasmiylashtirish va shartnomani shakllantirish</li> </ul>
		4.5	Ishtirokchi ariza shaklini to'ldirilgandan so'ng, ishtirokchi xaqida elektron tizimi orqali vijdotsiz ijrochilarning yagona reestrtdagi ma'lumotlari tekshiriladi – mavjud yoki mavjud emasligi.
		4.6	Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchi: Korparativ buyurtmachi tomonidan e'lon qilingan eng yaxshi taklifni tanlash tanloviga buyurtmachining talabiga binoan oldindan to'lov (Задаток) to'lashi va go'lib bo'lgan ta'minotchi bilan shartnoma imzolangunga qadar xarid platformasida pullar bloklanadi.
<b>5</b>	<b>Tanlov tili, o'lchov birligi</b>	5.1	Ishtirokchi va buyurtmachi o'rtasida amalga oshirilayotgan tanlov taklifi va unga bog'liq yozishmalar (xujjatlar) o'zbek, Rus-tillarida bo'lishi kerak. Agar tanlov taklifi boshqa tilda taqdim qilinsa, u holda uning o'zbek tilidagi aniq tarjimasi ilova qilinishi kerak. Birdan ortiq tildan foydalanilganda, tanlov matnida tafovut bo'lsa o'zbek tilidagi matn ustun qo'yiladi. Texnik xujjatlarni ingliz tilida taqdim qilishga ruxsat etiladi.
			Tanlov takliflarida umumiy qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanilishi kerak.
<b>6</b>	<b>Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi</b>	6.1	Portalda e'lon qilingan tanlovda ishtirok etuvchilar e'londa ko'rsatilgan tanlov o'tkaziladigan xarid platformasi (etender.uzex.uz)ga takliflarini, va ishtirokchining vakolatli shaxsi imzosi bilan tasdiqlangan xolda xarid platformasiga ERI kaliti orqali joylashtirishi talab etiladi.
		6.2	Tanlov ishtirokchisi:
			- taqdim qilinayotgan ma'lumot va xujjatlarning xaqiqiyliigi va ishonchliligiga javobgar;
			- faqat bitta taklif berish xuquqiga ega;
			- takliflar taqdim qilish muddati tugagunga qadar taqdim qilgan taklifini qaytarib olish yoki o'zgartirish kiritish xuquqiga ega.

		6.3	Tanlov taklifi ikki qismdan iborat: - texnik qism buyurtmachining texnik talablariga mos kelishi lozim va taklif qilinayotgan tovar xaqida batafsil ma'lumotni o'zida mujassam qilgan bo'lishi kerak; - narx qismi tanlov shartlariga mos kelishi kerak va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni (shu jumladan, maxsulot nomi, bir dona uchun narx, barcha soliqlar qo'shilgandagi umumiy narx, to'lov shartlari, taklifning amal qilish muddati va x.k.) o'z ichiga olgan bo'lishi kerak
		6.4	Tanlov ishtirokchisining narx taklifi va narxlar jadvali alohida tikilgan va raqamlangan bo'lishi kerak, shuningdek, elektron tashuvchilarda original formatda (Microsoft Office) taqdim etishga ruxsat etiladi. Narx shakllantirishdagi formulalarni kuzatish imkoni bo'lishi kerak.
		6.5	Tanlov takliflarini xarid platformasida ko'rsatilgan lot ostiga taqdim etilishi kerak.
		6.6	<b>Tanlov taklifida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:</b> - ma'lumotlar portalidagi lot raqami; - tanlov mavzusi; - ishtirokchining nomi; - buyurtmachining nomi va manzili; - ishtirokchining kontakt ma'lumotlari (elektron pochta manzili, vakolatli vakilning telefon raqami);
		6.7	- korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tanlov ishtirokchilarining majburiy ravishda ariza berish talabi.
		6.8	Ishchi organ mazkur yo'riqnoma talablariga mos ravishda ro'yxatga olingan tanlov takliflarining yaxlitligi va saqlanganligiga javobgarlikni zimmasiga oladi.
		6.9	Tanlov takliflari <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> portalida e'lon berilgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida (soat 17:00) gacha xarid platformasiga joylashtirishi shart.
		6.10	Tanlov takliflari taqdim qilingan takliflarni muxokama qilish komissiya a'zolari bilan birgalikda o'tkaziladi.
		6.11	Tanlov taklifi amal qilish muddati tanlov taklifi taqdim qilishning so'nggi kundan boshlab kamida 30 (o'ttiz) kunni tashkil qilishi kerak.
7	<b>Tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uyzaytirish</b>	7.1	Buyurtmachi zarur xollarda taklif taqdim qilish muddatini uzaytirishi mumkin, shuningdek, tanlov ishtirokchilariga ularning takliflari amal qilish muddatlarini tanlov komissiyasi xulosasiga ko'ra ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

		7.2	Tanlov takliflarini taqdim qilish muddatini uzaytirish xaqidagi e'lon maxsus axborot portaliga joylashtiriladi va zarur xollarda buyurtmachi saytida yoki boshqa OAV da e'lon qilinadi.
<b>8</b>	<b>Tanlov xujjatlariga o'zgartirishlar kiritish</b>	8.1	Zarur xollarda buyurtmachi tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga xaqli. Tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror taklif taqdim qilish muddatidan kamida 3 (uch) kun oldin qabul qilinishi mumkin. Tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritish jarayonida maxsulot (ish, xizmat ko'rsatish) yoki uning xarakteristikasi o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi. Taklif taqdim qilish muddati tugaguncha tanlov xujjatlariga o'zgartirish kiritilgan xollarda, tanlov muddati o'zgartirish kiritilgan sanadan boshlab 10 (o'n) kundan kam bo'lmagan muddatga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi.
<b>9</b>	<b>Tanlov takliflari ko'rish jarayoni, ularni baxolash tartibi va mezonlari</b>	9.1	E'londa tanlov o'tkazish vaqti sifatida ko'rsatilgan vaqtda tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim qilingan tanlov takliflarini baxolash uchun tanlov takliflarni ochadi.
		9.2	Tanlov ishtirokchilari takliflarini ko'rib chiqish va baxolash tanlov komissiyasi tomonidan tanlov takliflari taqdim qilish muddati tugagan paytdan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida o'tkaziladi.
		9.3	Takliflarni ochishda barcha xujjatlarning mavjudligi va ularning to'g'ri rasmiylashtirilgani tekshiriladi. Mos xujjatlar bo'lmagan xolda tanlov komissiyasi mazkur taklifni ko'rib chiqishga va baxolashga qo'ymaslik xuquqiga ega.
	 Malaka hujjatlari.docx	9.4	Tanlov komissiyasi tanlov xujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida g'olibni aniqlash uchun rad qilinmagan takliflarni baxolashni amalga oshiradi.
		9.5	Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilinishi zarur bo'lgan saralangan xujjatlar shakllari va ro'yxati tanlov xujjatlarining 1- ilovasida keltirilgan.



		9.6	Tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan xujjatlardagi ma'lumotning ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda ishtirok etishdan chetlatishga xaqli.
	 Baholash mezonlari.docx	9.7	Tanlov takliflarini baxolash va g'olibni aniqlash tanlov xujjatlari(2-ilovasi)da bayon qilingan mezonlar asosida amalga oshiriladi.
		9.8	Agar taklif Qonun, qaror, nizom talablariga va tanlov xujjatlariga mos kelsa, tegishli rasmiashtirilgan deb tan olinadi.
		9.9	Agar taklifni taqdim qilgan tanlov ishtirokchisi tegishli Qonun va Qarorlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmasa yoki taqdim qilingan tanlov xujjatlari talablariga mos kelmasa ishchi organ bu taklifni tanlovdan chetlatadi
		9.10	Tanlov takliflarini baxolash jarayonida ishchi organ tanlov ishtirokchilaridan ularning takliflari yuzasidan izox talab qilishi mumkin. Ushbu jarayon rasmiy ravishda, tanlov tashkilotchisi orqali belgilangan tartibda yozma shaklda amalga oshiriladi. Izox jarayonida taklif moxiyati, shuningdek, narx bo'yicha o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi.
		9.11	Agar tanlov shartlariga ko'ra tanlov ishtirokchilari turli valyutalarda narx taqdim qilsalar, baxolash paytida taklif summalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tanlov taklifining narxga oid qismi bor tanlov takliflari ochilish sanasidagi valyutalar kursi bo'yicha xisoblanadi.
		9.12	Tanlov xujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnoma ijrosining eng yaxshi shart-sharoitlarini taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb tan olinadi.
		9.13	Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo'lganda tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisini boxabar etgan xolda tanlov taklifini rad etish yoki ularni ko'rib chiqish uchun boshqa shartlar belgilashga xaqli.
		9.14	Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet ellik va maxalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan amaldagi barcha turdagi soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi uchun javobgardir.
		9.15	Takliflarni ko'rib chiqish va baxolash natijalari takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi bilan rasmiyashtiriladi.

		9.16	Takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi ishchi organning barcha a'zolari tomonidan imzolandi va uning ko'chirmasi imzolangan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida maxsus axborot portalida e'lon qilinadi.
		9.17	Xarid tadbiri natijasi bo'yicha har bir alohida tovar (ish, xizmat ko'rsatish uchun) alohida g'olib aniqlanishi mumkin
		9.18	Xar qanday tanlov ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baxolash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng buyurtmachiga tanlov natijalari bo'yicha izox taqdim qilishi xaqida so'rov yuborishga xaqli.
<b>10</b>	<b>Tomonlarning javobgarligi va maxfiylikka rioya qilish</b>	10.1	O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan maxfiylikka rioya qilinishiga quyidagilar javobgar: <ul style="list-style-type: none"> <li>- ishchi organ tarkibiga kiruvchi, kelib tushayotgan tanlov takliflarini xisobga olib boradigan va ularning saqlanganligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar;</li> <li>- komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlov takliflarini o'rganish, ma'lumotlar oshkor qilinishi, ishtirokchilar, boshqa komissiya a'zolari va jalb qilingan mutaxassislar o'rtasida til birlashtirishlar va boshqa noqonuniy xattixarakterliklar nazorati uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari</li> </ul>
		10.2	Shartnoma bo'yicha majburiyatlari (miqdor, sifat va boshqa texnik parametrlar bo'yicha) ni bajarmagan tanlov g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki imzolangan shartnomaga muvofiq javobgarlikka tortiladi.
<b>11</b>	<b>Boshqa shartlar</b>	11.1	Agar tanlovda ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod maxsulotlari taklif qilinsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu maxsulotlar bo'yicha uchinchi tomon bildirgan fikr-muloxazani taqdim qilishni so'rashga xaqli.
		11.2	Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar o'tkazilayotgan tanlov xaqida izox olish uchun ishchi organga murojaat qilish xuquqiga ega
		11.3	Tanlov ishtirokchisi buyurtmachiga tanlov e'lonida ko'rsatilgan shaklda tanlov xujjatlari qoidalarini tushuntirib berilishi to'g'risida so'rov yuborishga xaqli. Mazkur so'rov taklif taqdim qilish muddati tugashiga 3 (uch) kun qolganidan avval qabul qilingan bo'lsa taqdim qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida buyurtmachi belgilangan shaklda tanlov xujjatlari qoidalariga tushuntirishlar yuborishi shart. Tanlov xujjatlari qoidalarini tushuntirish uning moxiriyatini o'zgartirmasligi kerak.

		11.4	<p>Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki hech kim qatnashmasa;</li> <li>- takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi xamma takliflarni tanlov xujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan xolda rad etgan bo'lsa.</li> </ul>
		11.5	<p>Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtda tanlovni bekor qilishga xaqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.</p>
<b>12</b>	<b>Shartnoma imzolash</b>	12.1	<p>Tanlov natijalariga ko'ra tanlov xujjatlari va ishtirokchi taqdim qilgan tanlov taklifi shartlari asosida ushbu ishtirokchi bilan shartnoma imzolanadi.</p>
		12.2	<p>Tanlov komissiyasi xulosasiga ko'ra g'olib deb topilgan tanlov ishtirokchisi g'olib aniqlangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida tanlov komissiyasi xulosasi xaqida yozma ravishda ogoxlantiriladi. G'olib aniqlangan paytdan boshlab 10 (o'n) kun ichida buyurtmachi va g'olib shartnoma imzolashlari kerak.</p>
		12.3	<p>Tanlov g'olibi tanlov shartlari bo'yicha shartnoma imzolashni rad etgan xolda shartnoma imzolash xuquqi zaxiradagi ishtirokchiga o'tadi. Bunday xolatda zaxiradagi ishtirokchi tanlov g'olibi taklif qilgan narx bo'yicha shartnoma imzolashi yoki shartnoma imzolashni rad etishi mumkin.</p>
		12.4	<p>Shartnoma tanlov G'olibi bilan "UzAuto Motors" AJ ma'sul xodimlari PSA audit test natijalaridan keyin imzolanadi.</p>

## **TEXNIK QISM**

### **Labo avtomobilining 94584165 va 94584271 raqamli shtamplangan butlovchi qismlarni ishlab chiqarish.**

#### **Ko'rsatilayotgan xizmatlarning soni, xajmi va xususiyati (talablari).**

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) Ishtirokchi tomonidan Tanlov xujjatlarining texnik qismi, 1-ilovasida ko'rsatilgan "Texnik topshiriq" (keyingi o'rinda – TT deb yuritiladi) talablariga muvofiq amalga oshirilishi talab qilinadi.

Butlovchi qismlarni oylik ishlab chiqarilish xajmlari "UzAuto Motors" buyurtmasiga muvofiq o'zgarishi mumkin.

**Butlovchi qismlarni yetkazib berish muddati (yoki jadvali), bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar.**

Yetkazib berish tartibi, 1-ilovada keltirilgan, qismlarni yetkazib berish EDI (Elektron ma'lumotlar almashuvi) tizimi va ASN (oldindan yetkazib berish xabarnomasi) tizimi buyicha, xisob-varaqa (schet-faktura) asosida amalga oshiriladi.


**Ilova: Texnik topshiriq (TT)**



TT.docx

**Texnik topshiriq (TT)**

Butlovchi qism nomi	-94584271-REINF, FRONT SUSPENSION R -94584165-REINF, FRONT SUSPENSION L
Texnik ko`rsatkichlari	<p style="text-align: center;"><b>Material</b></p> <p style="text-align: center;">SPHC or SPCC t=1.4</p>
Butlovchi qismga texnika-texnologik talablar	<p style="text-align: center;"><b>Mahsulotni qabul qilish</b></p> <p>Masulotni sifati bo`yicha qabul qilish buyurtmachining “Butlovchi qismlarni kiritish nazorati” standartiga asosan amalga oshiriladi.</p> <p>Mahsulotni miqdor va sifat bo`yicha qabul qilish buyurtmachining korxonasida ta`minotchining vakili ishtirokida amalga oshiriladi.</p> <p>Yetkazib berilgan mahsulot miqdori buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan talabnomaga binoan, yozma yoki elektron shaklda kelishilgan shaklda berilgan hajmlarga mos kelishi lozim.</p> <p style="text-align: center;"><b>Mahsulot sifati</b></p> <p>Ta`minotchi buyurtmachiga mahsulotni buyurtmachi tomonidan joriy etilgan me`yor va o`rnatilgan standart, mahsulotni sifati, chizmalar talablari, me`yoriy xujjatlar, nazorat qilish usullari asosida yetkazib berilishiga kafolat beradi.</p> <p>Mahsulot materialini, tuzilishini yoki hujjatlarni bir tomonlama o`zgartirishga yo`l qo`yilmaydi.</p> <p>Buyurtmachi mahsulot sifati va ta`minotchining ekologik sertifikatini mavjudligini tekshirish huquqiga ega va zarur hollarda bu tekshirish huquqi bevosita iste`molchiga ham berilishi mumkin.</p> <p style="text-align: center;"><b>Sifat kafolati.</b></p> <p>Agar mahsulot kam yetkazib berilishi va sifat nomuvofiqligi, qadoqsiz va o`ramasiz yoki talab darajasida bo`lmagan qadoqda va o`ramada kelganligi, markasiz yoki talab darajada markalanmaganligi ta`minotchi vakili ishtirokida aniqlansa, ta`minotchi 3 (uch) ish kunida ushbu kamchiliklarni bartaraf etishi va yetishmayotgan miqdorini o`z mablag`lari xisobidan to`ldirilishi lozim, shuningdek buyurtmachidan yozma xabar(pochta, faks, electron pochta) qabul qilinganidan keyin yoki yetkazib berilgan sanadan boshlab 1 (bir) ish</p>

	kuni ichida tegishli idishga qadoqlash, markalash ishlarini bajarishi kerak.
Butlovchi qismning ishlatilish joyi	Payvandlash sexida ishlatiladi
Narx qismi	Tender taklifida ko`rsatilgan narxlar eng past narxdan oshmasligi kerak va keyinchalik o`zgartirilishi mumkin emas. Taqdim qilingan narxlar O`zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so`mda va qo`shimcha qiymat solig`i (QQS) bilan ko`rsatilishi lozim.
Fotosurat	 <p style="text-align: center;">94584271                      94584165</p>
Chizmasi va umumiy talablar	Ilova qilinadi
Qo`shimcha talablar	<p style="text-align: center;"><i>Tara va qadoqlash</i></p> <p>Butlovchi qismni yetkazib berishda shakli va hajmi ta`minotchi tomonidan ishlab chiqilgan va buyurtmachi bilan kelishilgan maxsus idishlar ishlatiladi va buyurtmachi bilan kelishilgan talablarga ko`ra markalanishi lozim.</p> <p>Mahsulotni yetkazib berishda quyidagi ma`lumotlarni o`z ichiga olgan yorliq yopishtiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– avtomobil turi;</li> <li>– butlovchi qism nomi, raqami va soni;</li> <li>– ta`minotchining kodi;</li> <li>– yetkazib berish joyi;</li> <li>– idish hajmi, qadoqlash sanasi, nazorat xolati va boshqalar.</li> </ul>

### III. Maxsulot narxi bo'yicha

Tavnlovga xavola etilgan narxlar taklif qilingan narxdan oshirilmasligi kerak va keyinchalik o`zgartirilmaydi.

Ishtirokchi tomonidan, maxsulot narxlari **QQS bilan** va **QQS siz** taqdim etiladi.

Taklif qilinayotgan narxlar va narxlar jadvali Ishtirokchi tomonidan Tanlov xujjatlarining narxlar qismida keltirilgan 6-forma ga asosan taqdim qilinadi.

Ishtirokchi tomonidan, maxsulotlar (xizmatlar, ishlar) birligining narxlari ko`rsatilishi shart.

Agar Buyurtmachi tomonidan narx shakllanish jadvali taqdim etilgan holda, Ishtirokchi tomonidan to`ldirilgan jadval elektron ko`rinishda taqdim etilishi shart. Barcha narx

shakllanishidagi formulalar kuzatilishi imkoni va narxlarni tarkibiy qismlari shaffof va tushunarli bo'lishi lozim Yashirin formulalar yoki narxlar shakllanishidan foydalanmaslik lozim.

Buyurtmachi, Ishtirokchi tomonidan asosiy narx taklifiga xar qanday qo'shimcha yoki muqobil narx takliflarini ko'rib chiqmaslik xuquqini o'zida saqlab qoladi.

1	Chegaraviy narx (Predelnaya stoimost)	200 000 000,00 (Ikki yuz million) 00 sum. QQS bilan
2	Moliyalashtirish manbai	O'z mablag'lari asosida
3	To'lov shartlari va to'lov tartibi	Shartnomaga ko`ra-taqqoslov dalolatnomasi hisoboti mavjud bo`lsa 10 bank kuni ichida, 15-sanadan keyin va har oyning
4	To'lov valyutasi	UZS – O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi (Sum)
5	Yetkazib berish vaqti	Shartnoma imzolanganidan keyin shartnoma muddati tugagunga qadar.
6	Maxsulot yetkazib berish joyi (ishni bajarish)	Xorazm viloyati Tuproqqal`a tumani Pitnak shaxri, Hazorasq ko`chasi 1.
7	Tanlov uchun takliflar taqdim etilishining amal qilish muddati	5 kun

Ilova№1: Tanlov hujjatlari uchun

### **Malakaviy hujjatlar RO'YHATI**

1. Komissiya raisi nomiga Tanlovda qatnashish uchun ariza (shakl No1)
2. Tanlov ishtirokchisining muxri bilan tasdiqlangan tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma hujjatning nusxasi.
3. Ishtirokchining qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligini, mijoz bilan sud yoki hakamlik holatida emasligini, shuningdek, ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha noto'g'ri bajarilgan majburiyatlarning yo'qligini tasdiqlovchi kafolat xati (2 -shakl).
4. Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot (3 -shakl)

## ISHTIROKCHINING TASHKILOTI BLANKASIDA

№: \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

*Xarid komissiyasi*

### ARIZA

Tanlov hujjatlari (taklif qilinayotgan mahsulotlarning nomini ko'rsating) bilan tanishib chiqqandan so'ng, №\_\_\_ so'rovlarga javoblar (yozma so'rovlar va ularga javoblar berilgan taqdirda so'rovlar raqamlarini ko'rsating), biz buni tasdiqlaymiz. (Tanlov ishtirokchisining ismi), tanlov hujjatlariga muvofiq mahsulot yetkazib berish bo'yicha o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etish maqsadida.

Shu munosabat bilan biz quyidagi hujjatlarni yuboramiz:

1. \_\_\_ varaqda malaka hujjatlari (varaqlar bukletlar, kompakt disklar va boshqalarni taqdim qilgan taqdirda, sonini ko'rsating);
2. Tanlov taklifining texnik qismi;
3. Tanlov taklifining narx qismi.
4. Boshqa hujjatlar (agar boshqa hujjatlar taqdim etilsa, varaqlarning nomi va sonini ko'rsatish kerak).

Tanlov taklifini tayyorlash uchun mas'ul shaxsning F.I.O:

Aloqa telefoni / faks: \_\_\_\_\_

Elektron pochta manzili \_\_\_\_\_

F.I.O rahbar yoki vakolatli shaxsning imzosi

Muhr o'rni

**ISHTIROKCHINING TASHKILOTI BLANKASIDA**

№: \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

*Xarid komissiyasi*

**KAFOLAT XATI**

Ushbu xat bilan kafolat beramiz korxonamizning \_\_\_\_\_:  
(korxonasi nomi)

- Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnoma shartlarini bajarilishi bo'yicha muammolar yo'qligi;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida emas;
- sudlanish yoki hakamlik holatida emas;
- shuningdek, kompaniyaning banki ofshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilmagan;
- vijdotsiz ijrochilarning yagona reestrda ro'yxatga olinmagan.

*Imzo:*

- Korxonasi rahbari F.I.O. \_\_\_\_\_
- Bosh buxgalter F.I.O. \_\_\_\_\_
- Yurist F.I.O. \_\_\_\_\_

*Muhr o'rni*



*Shakl №3*

Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot

1	Huquqiy shaklini ko'rsatuvchi yuridik shaxsning to'liq nomi	
2	Ro'yxatga o'linganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (ro'yxatga olish sanasi, ro'yxatga olish raqami, ro'yxatga oluvchi organning nomi)	
3	Yuridik manzili	
4	Aloqa telefoni, faks, e-mail	
5	To'liq bank tafsilotlari(rekvizit)	
6	Korxonaning asosiy faoliyati	

\_\_\_\_\_ (vakolatli shaxs imzosi)

\_\_\_\_\_ (vakolatli shaxsning lavozimi va F.I.O.)

**M.O'.**

Sana: «\_\_\_» \_\_\_\_\_

## Ilova №2 Tanlov hujjatlari uchun

### Ishtirokchilarni malakaviy tanlash va takliflarni baholash tartibi va mezonlari.

Malakali tanlov (baholash) tanlovning texnik va tanlov qismlarini ko'rib chiqish boshlanishidan oldin xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Agar ishtirokchi tomonidan kerakli ma'lumotlar taqdim etilmasa, xarid komissiyasi uning tanlovda ishtirok etishiga ruxsat bermaydi.

#### Baholash mezonlari

№	Mezonlar	Baholash	Izoh
1	Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarilishi	To'g'ri / noto'g'ri (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar noto'g'ri bo'lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega
2	Ishtirokchining moliyaviy ko'rsatkichlari taqdimoti	Bor/ yo'q	Agar ko'rsatilmagan bo'lsa, komissiya ishtirokchini diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega
3	Oldindan tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish	Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar yo'q bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi.
4	Offshor zonalarda ishtirokchi va bank ishtirokchisini ro'yxatga olinganligi	Ha/yo'q	Ishtirokchi, shuningdek, banklari offshor zonalarda ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilarga tanlovda qatnashishga ruxsat berilmaydi
5	Qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichidagi ishtirokchining holati	Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar ha bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
6	Buyurtmachi bilan sud muhokamasi yoki hakamlik muhokamasi bosqichidagi ishtirokchining holati	Ha/ yoq (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar ha bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
7	Ishtirokchi vijdotsiz ijrochilarning yagona reestriga kiritilgan	Ha/ yo'q (shu jumladan ishtirokchining kafolat xati asosida amalga oshiriladi)	Agar ha bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi

8	Ishtirokchining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzi yo'qligi to'g'risida soliq idorasidan ma'lumotnoma.	Bor/ yo'q	Agar yoq bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
9	Ta'sisichilari bir xil yuridik va/yoki jismoniy shaxslar bo'lgan ishtirokchilar	Ha/ yo'q	Agar yoq bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
10	Ishtirokchining Tashkiloti Blankasida (1-shakl)	1-shaklga asosan to'ldiriladi	Xarid komissiyasining ruxsati bilan
11	Tashkilotning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi (guxovnomasi)	Bor/ yo'q	Agar yoq bo'lsa, unda ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
12	Kafolat xati (2-shakl)	2-shaklga asosan to'ldiriladi	Xarid komissiyasining ruxsati bilan
13	Tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot (3-shakl)	3-shaklga asosan to'ldiriladi	Xarid komissiyasining ruxsati bilan

Izoh:

Qonunning 37-bo'limi

Davlat buyurtmachisi zarur hollarda mahsulot (ish, xizmat)ning o'ziga xos xususiyatlari yoki xususiyatlaridan kelib chiqib, ishtirokchilarga qo'shimcha talablar belgilashga haqli.

Ishtirokchilarga qo'yiladigan qo'shimcha talablar davlat xaridlarining asosiy tamoyillariga zid bo'lmasligi kerak.

Ishtirokchilar uchun qo'shimcha talablar ma'lumotlarda ko'rsatilishi kerak e'lon qilingan paytdagi davlat xaridlari to'g'risida.

Ishtirokchilarga qo'yiladigan qo'shimcha talablar bilan davlat xaridlarida ishtirok etish uchun ishtirokchilar dastlabki saralashdan o'tadilar.

### 1. Takliflarni texnik baholash.

Tanlov jadvalida ko'rsatilgan texnik baholash mezonlari asosida o'tkaziladi. Agar taklifni texnik baholash natijalariga ko'ra, Tanlov ishtirokchisi mezonlar bo'yicha "0" ball to'plagan bo'lsa, bu ishtirokchi xarid komissiyasi tomonidan tanlovda qatnashishdan diskvalifikatsiya qilinadi va uning taklifi boshqa ko'rib chiqilmaydi.

$$\text{Ballar} = (\text{Olingan ballar} / \text{Maksimal ballar}) * \text{Kategoriya ko'rsatgichi}\%$$

### Texnik baholash mezonlari

№	Mezonlar	Majburiy	Baholash
1	Texnik topshiriqda ko'rsatilgan talablarga muvofiq ma'lumotlarni taqdim etish. SPHC yoki SPCC 1.4	Buyurtmachi xisobidan (Daval Asosida)	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
2	Ishlab chiqarish grafigi (Сетавой график)	Мах 90 кун	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
3	Shamtplash Press 60t....90t	Ta'minotchi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
4	Payvandlash uskunasi	Ta'minotchi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
5	Chizmaga asosan Koliplar (Tayyor bo'lsa rasmi yoki Ma'lumot)	Ta'minotchi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
6	Ishlab chiqarish binosi (foto lavxa)	Ta'minotchi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball
7	Transport xarajatlari	Ta'minotchi xisobidan	Mos - 1 ball Mos kelmaydi - 0 ball